



INNOVATSION RIVOJLANISH AGENTLIGI DIREKTORI
BUYRUG'I

2024-yil 06-sentabr

130-son

Toshkent shahri

**Innovatsion rivojlanish agentligi direktorining 2023-yil 29-dekabrdagi
232-son buyrug'iga o'zgartirish kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, jismoniy va yuridik shaxslarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlarini ko'rib chiqish va xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ta'minlash masalalari yuzasidan kadrlarning kasbiy tayyorgarligi tizimini takomillashtirish hamda boshqa yo'nalishlarda belgilangan vazifalar ijrosini o'z vaqtida va samarali ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Innovatsion rivojlanish agentligi direktorining 2023-yil 29-dekabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat-kengashini tuzish to'g'risida" 232-son buyrug'i ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Innovatsion rivojlanish agentligining Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat-kengashi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Devonxona (D.Rajapova) yuqoridagi buyruqqa kiritilayotgan o'zgartirishni mazkur buyruqning ilovasiga muvofiq o'rnatilgan tartibda biriktirilishini ta'minlasin.

4. Innovatsion rivojlanish agentligi direktorining 2023-yil 29-dekabrdagi 232-son buyrug'i 1-bandi uchinchi xatboshisi va 2-ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



Sh.Rajabbayev

**Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni
ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat-kengashi
TARKIBI**

- | | | |
|--|---|---|
| 1. Qodirova
Fazilat Shukurovna | - | Direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi, <i>kengash raisi</i> |
| 2. Kabulov Elyor
Nurmamatovich | - | Axborot tahlil va ijro intizomi bo'limi boshlig'i, <i>kengash raisi o'rinbosari</i> |
| 3. Xakimova Faroxat
Sadirdinovna | - | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i |
| 4. Qahhorov Otabek
Siddiqovich | - | Davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi boshlig'i |
| 5. Abidov
Amir Ilgizovich | - | "Lotus Engineering va CleanBox" startaplar rahbari |
| 6. Rashidova Gulzoda
Ataxanovna | - | O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki raisi o'rinbosari |
| 7. Bo'tayeva Farida
Qo'ziyevna | - | Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi deputati, Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi |
| 8. Xaydarov Bozorali
Xasanovich | - | Yuridik bo'lim boshlig'i (<i>kuzatuvchi</i>) |
| 9. Mirraximova
Nargiza Mirzaxidovna | - | Ilm-fan va ta'lim integratsiyasi boshqarmasi bosh mutaxassisi, <i>kengash kotibi</i> |

Izoh: Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda ularning lavozimiga tayinlangan shaxs ishchi guruh a'zosi hisoblanadi.